



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI HOKIMINING QARORI

Namangan sh. Istiqlol ko'chasi 57.

2023 - yil 28 - dekabr

507-6-0-Q/23

Namangan viloyati hokimligi

Bozorlar va savdo komplekslarining ma'muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig'imlar, ijara to'lovi va ko'rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to'lovlar miqdorlarini belgilash to'g'risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 yil 9-son, 320-modda)ning 6 va 25-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2010 yil 26 apreldagi PQ-1326-son qarorining 4-bandi hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2010-yil 27-dekabrda 108, 2010-52-son qarori bilan tasdiqlangan “Bozorlar, savdo komplekslari va ularning filiallarida bir martalik yig'imlar, ijara to'lovlari hamda ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq undirilishini tashkil etish va nazorat qilish tartibi to'g'risida”gi Nizom (ro'yxat raqami 2185, 27.01.2011 y.)ga muvofiq, viloyat moliya bosh boshqarmasi hamda davlat soliq boshqarmasi tomonidan bir martalik yig'im to'lovi, ijara to'lovlari hamda ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar miqdori kelishilganligi va viloyat Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini muvofiqlashtirish uyushmasining 2023 yil 12 sentyabrda 75/09-son xatini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Baxriddinov) va viloyat Soliq boshqarmasi (A.Boyxanov) hamda bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini muvofiqlashtirish uyushmasining (A.Mamadumarov) takliflari ma'lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

viloyatdagi bozorlar va ustav fondida davlat ulushi kamida 51 foizni tashkil etadigan savdo komplekslarining ma'muriyati tomonidan undiriladigan bir martalik yig'imlarning miqdori 1-ilovaga muvofiq;

viloyatdagi bozorlar va ustav fondida davlat ulushi kamida 51 foizni tashkil etadigan

savdo komplekslari tasarrufidagi bino-inshootlar va inventarlarni ijaraga berish va ko'rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan xizmatlar miqdori 2-ilogaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Namangan shahar va tumanlar hokimlari viloyat Soliq boshqarmasi, tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalari hamda viloyat bozorlar va savdo komplekslari ma'muriyatlari bilan birgalikda:

bozorlar va savdo komplekslaridan tushadigan bir martalik yig'imlar, ijara to'lovi va ko'rsatiladigan xizmatlar qiymatini belgilangan tartibda to'liq undirilishini;

belgilangan bir martalik yig'imlar, ijara to'lovi va ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini viloyatdagi barcha bozorlar va savdo komplekslariga yetkazilishi, sotuvchi va xaridorlarga ko'rinarli joylarga joylashtirilishi hamda amalda tadbqiq etilishi ustidan nazorat o'rnatilishini ta'minlasin.

4. Namangan viloyat Soliq boshqarmasi (A.Boyxanov) tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalari bilan birgalikda bozorlar va savdo komplekslari ma'muriyati tomonidan bozorlarda bir martalik yig'imlar, ko'rsatilgan xizmatlar, foydalanganlik uchun ijara to'lovlari yig'im miqdorlarini ko'paytirish hisobiga tushadigan daromadlarni O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan tartibda yo'naltirilishini ta'minlasin.

5. Belgilansinki, qarorning 2-ilovasiga muvofiq, umumiy egallagan yer maydoni 100 kv. metrdan ortiq bo'lgan obyektlarni saqlash bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar obyektning foydalanilayotgan maydonidan kelib chiqqan holda undiriladi (bozor hududidan tashqarida joylashgan obyektlar bundan mustasno).

6. Namangan viloyati hokimining 2021 yil 15 iyuldagi 142-6-0-Q/21-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Ushbu qarordan norozi bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda sudga yoki boshqa vakolatli organlarga shikoyat qilish huquqiga ega.

8. Mazkur qaror "Namangan haqiqati" va "Namanganskaya pravda" gazetalarida e'lon qilinsin va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.Abduhamidov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



Sh.Abdurazakov

Namangan viloyat hokimining
2023-yil 28-dekabrdagi
507-6-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Viloyatdagi bozorlar va ustav fondida davlat ulushi kamida 51 foizni tashkil etadigan savdo komplekslari ma'muriyati tomonidan
undiriladigan bir martalik yig'implarning**

MIQDORI

(so'm)

t/r	Mahsulot turi	O'lchov birligi	To'lovlar miqdori	
			Namangan shahri	Tumanlar
1.	Mahsulotlarni savdo o'rinlarida sotish:			
1.1.	Mevalar: Ho'l mevalar: olma, anor, nok, shaftoli, anjir, olxo'ri, gilos, ko'k va qizil sulton, o'rik, uzum, olcha va h.k.	1 o'rin/kunga	8 000	7 000
	Malina, smorodina, qulupnay, gilos, shotut	1 o'rin/kunga	10000	8 000
	sitrus va tropik mevalar (apelsin, mandarin, limon, banan, ananas, kivi va h.k) hamda chet eldan keltirilgan boshqa ho'l mevalar	1 o'rin/kunga	15 000	13 000
	Quruq mevalar, yong'oqlar: turshak, bargak, mayiz, yong'oq, yeryong'oq, bodom, pistalar, sho'rdanak va h.k	1 o'rin/kunga	15 000	13 000

1.2.	Sabzavotlar: sabzi, piyoz, sarimsoq, bulgʻor qalampiri, baqlajon, patisson, pomidor, bodring va boshqalar	1 oʻrin/kunga	8 000	7 000
	Turp, sholgʻom, lavlagi, qizilcha, karam	1 oʻrin/kunga	8 000	7 000
	Kartoshka	1 oʻrin/kunga	8 000	7 000
	Issiqxonada yetishtirilgan bodring, pomidor, bulgʻor qalampiri	1 oʻrin/kunga		
	Yilning noyabr-may oylarida	1 oʻrin/kunga	12 000	10 000
	Yilning iyun-oktyabr oylarida	1 oʻrin/kunga	8 000	8 000
1.3.	Poliz mahsulotlari: xandalak, qovun, tarvuz, qovoq (6 kv.metr gacha)	1 oʻrin/kunga	15 000	12 000
	xandalak, qovun, tarvuz, qovoq (6 kv.metrdan ortiq)	1 oʻrin/kunga	20 000	15 000
1.4.	Don mahsulotlari: guruch, kungaboqar, yormalar (krupa), bugʻdoy, sulii, arpa va h.k	1 oʻrin/kunga	8 000	8 000
1.5.	Dukkakli mahsulotlar: mosh, loviya, noʻxat, javari va h.k	1 oʻrin/kunga	8 000	8 000
	yarim tayyor yanchilgan javari (goʻja)	1 oʻrin/kunga	6 000	4 000
1.6.	Sut mahsulotlari: sut, qatiq, qaymoq, smetana, uy pishlogʻi, suzma va h.k	1 oʻrin/kunga	8 000	6 000
1.7.	Tuzlamalar: karam, bodring, pomidor va h.k salatlar	1 oʻrin/kunga	10 000	8 000
1.8.	Ziravor va dorivorlar (zira, murch, qalampir, nos, urugʻlar va h.k)	1 oʻrin/kunga	8 000	8 000
	Asal va asalchilik aksessuarlari	1 oʻrin/kunga	10 000	10 000
	Mavsumiy nisholda, xolvaytar	1 oʻrin/kunga	10 000	10 000
1.9.	Koʻkatlar (shu jumladan, issiqxonada yetishtirilganlar)	1 oʻrin/kunga	8 000	8 000
1.10.	Tuxum	1 oʻrin/kunga	9 000	8 000

1.11.	Gullar (6 kv.metr gacha)	1 o‘rin/kunga	8 000	8 000
	Gullar (6 kv.metr dan ortiq)	1 o‘rin/kunga	12 000	10 000
	Ko‘chatlar (bodring, pomidor, bulg‘or qalampiri, qalampir, karam, baqlajon, rayhon va boshqa gul ko‘chatlar)	1 o‘rin/kunga	10 000	8 000
	Ko‘chatlar (mevali va manzarali daraxtlar ko‘chati, terak ko‘chati va h.k)	1 o‘rin/kunga	12 000	12 000
1.12.	Non mahsulotlari (obi non, patir, shirmoy va h.k)	1 o‘rin/kunga	8 000	7 000
	Uy sharoitida tayyorlangan bulochka, pirog va boshqa pishiriqlar	1 o‘rin/kunga	7 000	6 000
1.13.	Uyda tayyorlangan konservalangan mahsulotlar, pazandalik mahsulotlari (shu jumladan pishirilgan no‘xot, baliq va boshqa mahsulotlari)	1 o‘rin/kunga	8 000	8 000
	Uy sharoitida tayyorlangan qandolatchilik mahsulotlari (oqqand, novvot, pechak qand, xolvalar va boshqa shirinliklar)	1 o‘rin/kunga	9 000	8 000
1.14.	Sanoat yo‘li bilan ishlab chiqarilgan oziq-ovqat, konditer mahsulotlari va salqin ichimliklar	1 o‘rin/kunga	10 000	10 000
1.15.	Dudlangan kolbasa va cho‘chqa yog‘i	1 o‘rin/kunga	15 000	14 000
1.16.	Milliy taomlar	1 o‘rin/kunga	14 000	12 000
1.17.	Polietelen va qog‘oz paketlar, savatlar va posilka qutilar va h.k	1 o‘rin/kunga	10 000	8 000
1.18.	Supurgi, isiriq	1 o‘rin/kunga	8 000	7 000
1.19.	Tirik baliq	1 o‘rin/kunga	14 000	12 000
1.20.	Xalq ijodkorligi, xalq hunarmandchiligi va kosibchilik tovarlari, shu jumladan xon taxta, sandal, beshik va beshik anjomlari (6 kv.metr gacha)	1 o‘rin/kunga	12 000	10 000
	mayda hunarmandchilik mollari (o‘roq, arra, tesha, bolta, pichoq, elak, juva, chekich, pishiriq qoliplari va boshqalar) (6 kv.metr gacha)	1 o‘rin/kunga	8 000	8 000
	Teri va mo‘yna mahsulotlari	1 o‘rin/kunga	12 000	10 000

1.21.	Tijorat yo'li bilan olib kelingan nooziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan xo'jalik mollari, tayyor kiyimlar, gazlamalar, o'rin to'shak jixozlari (2 kv metrgacha)	1 o'rin/kunga	8 000	7 000
	Tijorat yo'li bilan olib kelingan nooziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan xo'jalik mollari, tayyor kiyimlar, gazlamalar, o'rin to'shak jixozlari (6 kv metrgacha)	1 o'rin/kunga	12 000	11 000
	Tijorat yo'li bilan olib kelingan nooziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan xo'jalik mollari, tayyor kiyimlar, gazlamalar, o'rin to'shak jixozlari (6 kv metrdan ortiq)	1 o'rin/kunga	20 000	16 000
1.22.	Attorlik (galanteriya) mahsulotlari	1 o'rin/kunga	10 000	8 000
1.23.	Gilam, sholcha, palas (6 kv metrgacha)	1 o'rin/kunga	12 000	12 000
	Gilam, sholcha, palas (6 kv metrdan ortiq)	1 o'rin/kunga	14 000	14 000
1.24.	Milliy kiyimlar, milliy do'ppi va boshqa milliy bosh kiyimlar	1 o'rin/kunga	10 000	8 000
1.25.	Mebel jihozlari	1 o'rin/kunga	15 000	15 000
1.26.	Uyali telefon aksessuarlari va boshqa buyumlar (DVD, pult, tyuner, antenna, yoritish fonarlari va x.k)	1 o'rin/kunga	11 000	9 000
1.27.	Mayda konselariya mollari (daftar, ruchka, bloknot va boshqalar) kalendarlar, bukletlar, gazeta, jurnallar va h.k	1 o'rin/kunga	11 000	9 000
2.	Go'sht mahsulotlari: mol, qo'y, cho'chqa, parranda go'shti, jigar, dumba va h.k	1 o'rin/kunga	18 000	15 000
	Sub mahsulotlar (hayvon tili, tuyog'i, kalla go'shti, xasip va x.k)	1 o'rin/kunga	10 000	9 000

3.	Mahsulotlarni avtomashinalardan sotish:			
	yengil avtomashinalardan	1 mashinaga	16 000	14 000
	yuk avtomashinalaridan	1 mashinaga	22 000	20 000
	tirkamali, yarim tirkamali yuk avtomashinalari va avtopoyezdlardan	1 mashinaga	20 000	18 000
	aravachalarda (yurib) mahsulot sotish (ko'kat, non, shirinliklar va h.k)	1 arava/kunga	8 000	8 000
	mahsulotlarni yerdan sotish (savdo rastalaridan tashqarida, maxsus ajratilgan joylarda) (6 kv. metrgacha)	1 o'rin/kunga	10 000	9 000
4.	Uy hayvonlari uchun yem-ozuqalar (har bir tirkama yoki yuk avtomashinasi uchun): shrot,sheluxa, kombikorma, pichan, somon, guruch va makkajo'xori poyasi va xk			
	yengil avtomashinasidan	1 mashinaga	18 000	12 000
	yuk avtomashinasidan	1 mashinaga	23 000	18 000
	traktor tirkama(pritsepl)laridan	1 tirkama (pritsep) uchun	23 000	18 000
	Katta yuk avtomashinalaridan (yuk ko'tarish quvvati 10 tn dan yuqori bo'lgan)	1 mashinaga	35 000	25 000
5.	Qurilish materiallarini sotish:			
5.1.	Temir va yog'och darvoza (har 4x4 metr joy uchun)	1 o'rin/kunga	18 000	16 000
5.2.	Eshik va romlar (har 2,7x2,7 metr joy uchun)	1 o'rin/kunga	14 000	12 000
5.3.	Kraska, mix va boshqa xo'jalik mollari hamda qurilish materiallari (1x1,5 metr)	1 o'rin/kunga	10 000	8 000
5.4.	mahalliy yog'och sotuvchilardan			
	6 kv.metrgacha	1 o'rin/kunga	10 000	8 000
	6 dan - 15 kv. metrgacha	1 o'rin/kunga	12 000	10 000
	15 dan - 30 kv.metrgacha	1 o'rin/kunga	14 000	13 000

5.5.	Ishlab chiqqan yog'och, taxta va boshqa qurilish materiallari sotuvchilaridan			
	6 kv.metr gacha	1 o'rin/kunga	8 000	7 000
	6 dan - 15 kv. metr gacha	1 o'rin/kunga	10 000	8 000
	15 dan - 30 kv.metr gacha	1 o'rin/kunga	13 000	11 000
5.6.	Ishlab chiqqan truba, armatura, sim va boshqa metallar			
	6 kv.metr gacha	1 o'rin/kunga	10 000	8 000
	6 dan - 15 kv. metr gacha	1 o'rin/kunga	10 000	9 000
	15 dan - 30 kv.metr gacha	1 o'rin/kunga	12 000	10 000
5.7.	Sement, ohak, mel, albaster, arzik, qum va h.k. (10 kv.metr gacha)	1 o'rin/kunga	8 000	8 000
5.8.	Qayta ishlangan yog'och mahsulotlari (reyka, chaspak, karniz va shu turdagi mahsulotlar) (xar 6 kv metr joy uchun)	1 o'rin/kunga	9 000	8 000
5.9.	Kichik o'lchamdagi qurilish materiallari (mayda o'lchamli), santexnika yoritish uskunalarini (lustra, svetilnik va h.k) sotish (6 kv metr gacha)	1 o'rin/kunga	11 000	9 000
6.	Ilgari foydalanishda bo'lgan buyumlar va ehtiyot qismlarni otish:			
	Avtomobillar uchun ehtiyot qismlar	1 o'rin/kunga	12 000	9 000
	Uy-ro'zg'or jihoz buyumlari va kiyim-kechaklar	1 o'rin/kunga	9 000	8 000

7.	Avtotransport vositalarini sotish:			
	GM-O'zbekiston (UzDEUavto) va xorijda ishlab chiqarilgan yengil avtomashinalar	1 dona	35 000	25 000
	MDH (SNG) davlatlarida ishlab chiqarilgan yengil avtomobil va mikroavtobuslar	1 dona	34 000	25 000
	yuk avtomashinalari, avtobuslar, traktorlar va boshqa yuk ko'taruvchi transport vositalari	1 dona	40 000	30 000
	mototsikl, motoreller va mopedlar	1 dona	10 000	9 000
	Velosipedlar	1 dona	8 000	8 000
	Sotish uchun keltirilgan avtotransport vositalarini saqlash	1 dona/sutkaga	5 000	4 000
8.	Mol bozoriga olib kiriladigan har bir chorva mollari uchun			
8.1.	Ot, toy, tuya	1 bosh	25 000	25 000
	bo'taloq, eshak	1 bosh	12 000	12 000
8.2.	Yirik shoxli qoramol:			
	yirik shoxli qoramol, (shu jumladan, sigir emdi buzoqchasi) bilan	1 bosh	40 000	40 000
	yirik shoxli qoramollar, ya'ni buqa, sigir, g'unajin, buzoq	1 bosh	25 000	25 000
	Buzoqcha	1 bosh	15 000	15 000
8.3.	Mayda shoxli qoramol:			
	Qo'y qo'zichog'i (shu jumladan qo'y emdi qo'zichog'i) bilan	1 bosh	25 000	25 000
	qo'y, qo'zi	1 bosh	15 000	15 000
	Qo'zichoq	1 bosh	10 000	10 000
	Echki uloqchasi bilan	1 bosh	20 000	20 000
	Echki	1 bosh	12 000	12 000
	Uloqcha	1 bosh	8000	8000
8.4.	Cho'chqa va cho'chqa bolalari	1 bosh	7 000	7 000

9.	Uy parrandalari: kurka, tovuq, o'rdak, g'oz	1 bosh	5 000	5 000
	tovuq, kurka, o'rdak, g'oz jo'jalari	10 bosh	5 000	5 000
10.	Itlar, mushuk, quyonlar	1 o'rin/kunga	7 000	6 000
11.	Manzarali qushlar va baliqlar	1 o'rin/kunga	8 000	6 000
12.	Itlar, mushuklar, manzarali qushlar va baliqlar uchun ozuqalar hamda tegishli aksessuarlar va buyumlar	1 o'rin/kunga	10 000	8 000
13.	Arqon, zanjir, egar va boshqa aksessuarlar sotuvchilaridan	1 o'rin/kunga	8 000	6 000
14.	Poyafzal ta'mirlash, charxchilik xizmati	1 o'rin/kunga	8 000	6 000

Namangan viloyat hokimining
2023-yil 28-dekabrda
507-6-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Viloyatdagi bozorlar va ustav fondida davlat ulushi kamida 51 foizni tashkil etadigan savdo komplekslari tasarrufidagi bino-inshootlar va inventarlarni ijaraga berish va ko'rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to'lovlar

MIQDORI

(so'm)

t/r	Ko'rsatiladigan xizmatlar turlari	O'lchov birligi	To'lovlar miqdori	
			Namangan shahri tumanlar	Namangan shahri tumanlar
1.	Bozorlar va savdo komplekslari tasarrufidagi bino va inshootlardan foydalanganlik uchun ijara to'lovi:			
	nooziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv.m./oyiga	30 000	25 000
	oziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv.m./oyiga	28 000	24 000
	umumiy ovqatlanish	1 kv.m./oyiga	26 000	22 000
	maishiy xizmat ko'rsatish	1 kv.m./oyiga	20 000	16 000
1.1.	Boshqa turlar			
	ombor, ofis va hokazo	1 kv.m./oyiga	22 000	19 000
	dorixona, paynet xizmati	1 kv.m./oyiga	22 000	20 000

1.2.	Savdo va xizmat ko'rsatish shaxobchasining atrofida (old, yon, orqa tashqi qismida) tashkil etilgan savdo joyi uchun	1 kv.m./oyiga	25 000	20 000
2.	Bozor tasarrufidagi rastalar va ochiq joylarni ijaraga berish (qurilish materiallari sotishda)			
2.1.	Temir va yog'och darvoza	1 kv.m./oyiga	28 000	24 000
2.2.	Eshik va romlar	1 kv.m./oyiga	36000	32 000
2.3.	Kraska, mix va boshqa xo'jalik mollari hamda qurilish materiallari	1 kv.m./oyiga	170 000	150 000
2.4.	mahalliy yog'och sotuvchilardan	1 kv.m./oyiga	15 000	13 000
2.5.	import yog'och, taxta va boshqa yog'och mahsulotlari sotuvchilaridan	1 kv.m./oyiga	13 000	11 000
2.6.	DVP, DSP, Fanera va shu turdagi mahsulotlar shu jumladan qayta ishlangan yog'och mahsulotlari (reyka, chaspak, karniz, saydin va shu turdagi boshqa mahsulotlar)	1 kv.m./oyiga	42 000	42 000
2.7.	Shifer, tunuka shu turdagi top yopqich mahsulotlar	1 kv.m./oyiga	26 000	25 000
2.8.	Truba, armatura, sim va boshqa metallar	1 kv.m./oyiga	26 000	23000
2.9.	Sement, ohak, mel, albaster, arzik, qum va h.k.	1 kv.m./oyiga	24 000	21 000
3	Inventarlarni ijaraga berish:			
3.1.	Tosh-tarozilar uchun	1 kunga	6 000	5 000
3.2.	Katta yuk tortish tarozilari uchun			
	150 kg.gacha	1 kunga	6 000	5 000
	150 kg.dan 1500 kg.gacha	1 kunga	15 000	14 000

3.3.	Savdo jihozlari uchun (bolta, taxtakach, pichoq, o'rindiq, voronka, patnis, savat, va h.k) (butun to'plam uchun, bunda to'plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi)	1 kunga	5 000	4 000
3.4.	Maxsus ust-bosh kiyimlar uchun (xalat, etak, yenglik) (butun to'plam uchun, bunda to'plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi)	1 kunga	5 000	4 000
3.5.	Mahsulotlar uchun brezent berish	1 kunga	8 000	6 000
3.6.	Aravachalar uchun	1 kunga	5 000	4 000
3.7.	Reklama joylashtirishga ajratilgan yer maydonidan foydalanganligi uchun (1 kv.metr)	1 kunga	1 600	1 300
4.	Ko'rsatiladigan xizmatlar turlari:			
4.1.	Qishloq xo'jaligi va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash:			
	sovutkichlarda (har bir yashik, qop va h.k. uchun)	1 kunga	8 000	6 000
	omborxonalarda, saqlash kameralarida (har bir yashik, qop va h.k. uchun)	1 kunga	6 000	5 000
	bozor tasarrufidagi rastalarda va ochiq joylarda (savdo o'rni hisobidan, har bir yashik, qop va x.k. uchun)	1 kunga	6 000	5 000
4.2.	Buyumlarni omborlarda saqlash (bir 50x50x100 o'lchamdagi joy uchun)	1 kunga	6 000	4 000
4.3.	Mahsulotlarni tarozida tortish			
	katta yuk tarozida	1 marta tortish	5 000	4 000
	yirik va mayda shoxli qoramolni tortish	1 marta tortish	6 000	5 000

4.4.	Avtotarozilardan foydalanish:			
	yuk ko'tarish quvvati 5 tonnadan ortiq bo'lgan tirkamali, yarim tirkamali yuk avtomashinalari va avtopoyezdlardan:			
	yuk bilan	1 marta o'lchash	6 000	5 000
	yuksiz	1 marta o'lchash	5 000	4 000
	yuk ko'tarish quvvati 5 tonnagacha bo'lgan tirkamali va yarim tirkamali yuk avtomashinalaridan:			
	yuk bilan	1 marta o'lchash	6 000	5 000
	yuksiz	1 marta o'lchash	5 000	4 000
	yengil avtomashinalardan:			
	yuk bilan	1 marta o'lchash	6 000	5 000
	yuksiz	1 marta o'lchash	5 000	4 000
	tirkamali yengil avtomashinalardan:			
	yuk bilan	1 marta o'lchash	6 000	5 000
	yuksiz	1 marta o'lchash	4 000	3 000
4.5.	Mehmonxona xizmatidan foydalanish (1 ta joy uchun)	1 kunga	14 000	12 000
4.6.	Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash uchun:			
	yengil avtomashinalar uchun	1 soatiga	2 000	2 000
	yuk avtomashinalar uchun	1 soatiga	3 000	3 000
4.7.	Xojatxona xizmatidan foydalanish	1 marta	1 000	1 000
4.8	Telefondan foydalanish	1 marta	1 000	1 000
4.9	Radiouzel orqali e'lon berish	3 marta takror	5 000	5 000

	Umumiy foydalaniladigan obyektlarni saqlash bo'yicha ko'rsatiladigan majburiy xizmatlar (asfaltlangan			
4.10	va bruschatka yotqizilgan yo'laklar, trotuarlar, kirish va chiqish joylari, yer osti va yer usti kanalizatsiya lotoklari, ichki va tashqi yoritish tarmoqlari va inshootlari, ichimlik suvining sanitar-texnik bo'g'inlari, umumiy hududni qo'riqlash va tozalash, maishiy va meva-sabzavot mahsulotlarining chiqindilarini yig'ish va olib chiqish, tashqi muhandislik-kommunikatsiya inshootlari va hk)*	1 kv.m./oyiga	28 000	22 000
	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv.m./oyiga	20 000	18 000
	Umumiy ovqatlanish			
	Maishiy xizmat ko'rsatish va boshqa turlar	1 kv.m./oyiga	17 000	15 000
	ombor, ofis va hakoza	1 kv.m./oyiga	20 000	15 000

* Bozorlar va savdo komplekslari tasarrufidagi bino va inshootlar mulkdorlariga ko'rsatiladi hamda ular uchun kadastr hujjatlarida ko'rsatiladigan egallangan yer maydonlaridan kelib chiqib haq to'lanadi.

Izoh:

1. Qishloq xo'jalik mahsulotlari va xalq iste'moli mollari bilan savdo qilinganda, bir joy (savdo o'rne) o'lchami 1-1,2 pogon metr deb belgilanadi va shu o'lchamdan ortiq o'rin uchun qo'shimcha ravishda har bir savdo o'rne uchun belgilangan to'lov miqdorida joy haqi undiriladi.

2. Haftaning ma'lum bir kunlari faoliyat yuritadigan bozor tasarrufidagi bino inshootlarni ijaraga berish (2-ilova 1-band) hamda infratuzilmaga to'lovlarni (2-ilova 4.10-band) hisoblashda bir oylik to'lovdan kelib chiqqan holda, faqat bozor faoliyati yuritiladigan kunlar uchun to'lov summasi hisoblab, undiriladi. Misol uchun: Toshbuloq dehqon bozori haftada 4 kun (payshanba, juma, shanba va yakshanba kunlari) faoliyat yuritgani holda, bozor tasarrufidagi 20 kv.metr maydonga ega bozorga tegishli oziq-ovqat mahsulotlari savdo do'koni uchun bir oyga $20 \times 24000 = 480000$ so'm to'lov hisoblanib, bir oy mobaynida 16 (yoki 17) bozor faoliyati kuni uchun $(480000:30) \times 16 = 256000$ so'm ijara to'lovi hisoblab, undiriladi.

3. 2-ilovaning 2-bandida keltirilgan xizmat turlari oy davomida muntazam faoliyat yuritadigan har kunlik bozorlar tasarrufidagi rastalar va ochiq joylarni (qurilish materiallari sotish uchun) ijaraga berishda qo'llaniladi.

4. Qishloq xo'jalik mahsulotlari va xalq iste'moli mollari aralash holda sotilganda, to'lov sotiladigan mahsulot turlari bo'yicha belgilangan eng yuqori stavka bo'yicha undiriladi.

5. Bozor tasarrufidagi bino inshootlarning 2-chi va undan yuqori qavatlari hamda yerto'la (podval) uchun ijara hamda infratuzilmaga to'lovlarni hisoblashda birinchi qavatning har bir kvadrat metr joyi uchun belgilangan stavkalarga 0,825 tuzatish koeffitsenti qo'llaniladi. Misol: Namangan shahridagi bozor balansida bo'lgan nooziq-ovqat mahsulotlari savdosi uchun mo'ljallangan binoning 40 kv metr maydonga ega birinchi qavati uchun $40 \times 30000 = 1200000$ so'm oylik ijara to'lovi hisoblansa, xuddi shu binoning yuqori qavatlari va yerto'lasini uchun $40 \times 30000 \times 0,825 = 990000$ so'm oylik ijara to'lovi hisoblanadi.